

WIPO IP Diagnostics

Kichik va o'rta biznes uchun
intellektual mulk bo'yicha o'zini-
o'zi baholash vositasi



Nega “WIPO IP Diagnostics”dan foydalanish kerak?

- Agar siz intellektual mulk (IM) haqida **tushunarli tilda** ma'lumot olishni xohlaydigan **kichik biznes** bo'lsangiz.
- Agar **IM sizning biznes imkoniyatlaringizni oshirishga** qanday yordam berishi mumkinligini bilmoqchi bo'lsangiz.
- O'z biznesingiz qanday **istiqbolli intellektual mulk aktivlariga ega** ekanligini bilishni istasangiz.
- Siz ushbu aktivlarni qanday himoya qilish va biznesingizga **qo'shimcha qiymat berish** uchun qanday boshqarish mumkinligini **o'rganmoqchi** bo'lsangiz.

Unda WIPO IP Diagnostics ayni siz uchun!

- WIPO IP Diagnostics onlayn vositasida shaxsiy biznesingiz haqidagi asosiy savollarga javob bering va siz:
- intellektual mulkning (IM) asosiy turlari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz
- o'zingizda mavjud bo'lgan IM aktivlarini aniqlay olasiz
- tijorat qiymati uchun IM aktivlaringizni qanday himoya qilish, boshqarish va ulardan foydalanish haqida umumiy tasavvurga ega bo'lasiz va
- IM bilan bog'liq masalalar inobatga olinmaganda biznesingiz qanday muammolarga duch kelishi mumkinligini tushunib olasiz



Biznesingizda intellektual mulkning o'rne haqida tushunchaga ega bo'ling

WIPO IP diagnostics dasturiy ta'minotga asoslangan vosita bo'lib, unga kompyuter yoki internetga ulangan mobil telefoni bo'lgan istalgan shaxs kirishi mumkin. Tizim foydalanuvchiga bir qator savollarni qo'yadi, foydalanuvchi esa o'z biznesidan kelib chiqqan holda ushbu savollarga javob beradi. Mavzular va savollar intellektual mulk ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha asosiy biznes sohalarini qamrab oladi.

Siz bergan javoblar biznesingizning istiqbolli intellektual mulk aktivlari haqida individual hisobotni yaratadi va ularni qanday boshqarish mumkinligi haqida umumiy ma'lumot beradi. Hisobot sizning biznesingizga tegishli IP boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish uchun boshlang'ich nuqta sifatida ishlatilishi mumkin.



Foydalanishga qulay – undan o'z xohishingizga ko'ra foydalaning

WIPO IP diagnostics 10 ta bo'limga ega; siz faqat biznesingizga tegishli deb hisoblagan bo'limlarni to'ldirasiz. Agar barcha bo'limlar tegishli bo'lsa, butun baholashni yakunlash uchun taxminan bir soat vaqt ketadi. Siz qancha vaqt kerak bo'lsa, shuncha vaqt olishingiz va hatto baholashni to'xtatib, keyinroq unga qayta kirishingiz mumkin. Sizning javoblaringiz saqlanadi va tegishli bo'limlarni to'ldirish uchun istalgancha qayta kirishingiz mumkin.

Muhim: WIPO IP diagnostics yuridik maslahat o'rnini bosa olmaydi. Bu yuridik maslahat olishdan oldin intellektual mulk haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish uchun foydali vositadir.



Intellectual mulkni o'rganish – bu juda oson

WIPO IP Diagnostics foydalanuvchiga o'z biznesiga tegishli bo'lgan turli xil intellektual mulk huquqlari bilan tanishish imkonini beradi, ya'ni:

- patentlar,
- tovar belgilari,
- sanoat na'munalari,
- mualliflik huquqi va
- tijorat sirlari.

Bundan tashqari, veb-saytni yuritish, xalqaro savdo bilan shug'ullanish, xodimlar, tashqi yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan ishlash, intellektual mulkni litsenziyalash, muhofaza va himoya qilish kabi biznes faoliyatining turli sohalariga intellektual mulk qanchalik ta'sir ko'rsatishining guvohi bo'lasiz.

Individual hisobotga ega bo'ling

Sizga tegishli bo'lgan har bir intellektual mulk va biznes sohalari bo'yicha savollarga bergan javoblaringiz asnosida hisobot yaratiladi.

Agar barcha bo'limlardan foydalanilgan va savollarga javob berilgan bo'lsa, foydalanuvchi har bir bo'lim uchun o'rtacha to'rt sahifadan iborat, jami bo'lib esa deyarli 50 sahifadan iborat hisobotga ega bo'lishi mumkin.



WIPO IP Diagnostics

Foydalanishga qulay

Bir necha daqiqada individual hisobotga ega bo'ling

WIPO IP Diagnostics – bu mutlaqo bepul

Onlayn tarzda quyidagi havolaga kiring: www.wipo.int/ipdiagnostics



Butunjahon Intellektual Mulk
Tashkiloti
34, chemin des Kolombettes
P.O. 18-quti
CH-1211 Jeneva 20
Shveysariya

Tel: +41 22 338 91 11
Faks: +41 22 733 54 28

BIMT tashqi idoralari bilan bog'lanish
uchun:
www.wipo.int/about-wipo/en/offices

© BIMT, 2023



Attributsiya 4.0 Xalqaro (CC BY 4.0)

CC litsenziyasi ushbu nashrdagi BIMTga tegishli
bo'lmagan kontentga taalluqli emas.

Suratlarni taqdim etuvchi: Getty Images

BIMT ma'lumotnomasi
RN2023-7EN
DOI:10.34667/tind.47768